

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

H.V.Ivонина, Ф.Ч.Бойко

Сравнительный анализ моделей организационного туризма в Европе, СНГ и Азии: институциональные уроки для Узбекистана 5

Е.В.Голышева, Ш.Г.Хошимов

«Зигзагообразное» планирование туристских маршрутов как инструмент пространственного развития и устойчивости туризма (на примере Ферганской области) 13

FALSAFA

S.A.Muradov

Hind o'lkasida tasavvuf ta'limotining rivojlanish tendensiyasi 22

L.S.Yuldasheva

Abu Ali ibn Sinoning "Urjuza" she'riy dostonining falsafiy tahlili 26

M.T.Xidirov

Postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida bilim va faoliyat dialektikasining o'rni 30

D.I.Saydullayeva

Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi 35

F.A.Yuldashev

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ehtiyoj-manfaatlari va ekzistensial jarayonlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil 38

R.Orziboyev

Yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rni 43

C.Бусала

Изучение искусственного интеллекта через призму философского пространства и времени 47

Y.A.Xudoyqulov

Zamonaviy jamiyatda harbiy fanni yuksaltirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodologiyasi 51

R.S.Raupova, N.Rajabova

Imom ash-Shotibiyning qiroat ilmidagi xizmatlari va uning ilmiy merosi 55

E.I.Tursunaliyeva

Ijtimoiy davlat fenomeni: nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba 58

G.A.Raximova

Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolishning ijtimoiy omillari 62

M.Z.Jumayeva

Globalashuv sharoitida yangi O'zbekiston: ulkan maqsadlar va zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatlari 67

A.A.Qambarov

Is'hoqxon to'ra ibrat ilmiy merosining falsafiy tahlili 72

B.S.Ganiyev, I.B.Xolmatov

Jamiyatimiz yangi taraqqiyot bosqichida sportni – ijtimoiy fenomen sifatida qaror topishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 77

L.E.Tursunova

Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi 83

A.A.Mo'ydinov

Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini 87

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad qarashlarida axloqiy masalalarning falsafiy tahlili 93

M.K.Soipova

Yangi O'zbekistonda yoshlarni komillikka erishishida Fazl ibn Ahmad merosining o'rni 96

G.A.Qamariddinova

"Rashahotu aynil-hayot" asarida insonparvarlik va ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi 100



UO'K: 002.1.1.1:331.101.262

RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA SHAXS EHTIYOJ-MANFAATLARI VA EKZISTENSIAL JARAYONLAR: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL**ПОТРЕБНОСТИ И ИНТЕРЕСЫ ЛИЧНОСТИ ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО ОБЩЕСТВА: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ****NEEDS AND INTERESTS OF THE PERSONALITY EXISTENTIAL PROCESSES IN THE CONDITIONS OF DIGITAL SOCIETY: SOCIAL AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS****Yuldashev Farrux Abduraxmanovich** 

Farg'ona davlat universiteti, falsafa va milliy g'oya kafedrası katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya

Maqolada raqamlashgan jamiyat sharoitida ehtiyoj va manfaatlarning ekzistensial jarayonlar bilan o'zaro uyg'unligini tadqiq qilish, ushbu tushunchalarning konseptual asoslari hamda ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berish, raqamli jamiyat makonida yoshlar ehtiyoj va manfaatlari ta'minlashdagi ziddiyatlar, jamiyatni zamonaviylashtirishning shaxs ehtiyoj-manfaatlari va ekzistensial holatlaridagi mushtaraklikni ta'minlash yo'llari asoslangan.

Аннотация

Статья основана на исследовании взаимодействия потребностей и интересов с экзистенциальными процессами в цифровом обществе, раскрытии концептуальных основ и социально-философских аспектов этих понятий, противоречий в обеспечении потребностей и интересов молодежи в цифровом обществе, а также путей обеспечения общности индивидуальных потребностей и интересов и экзистенциальных ситуаций в условиях модернизации общества.

Abstract

The article is based on the study of the interaction of needs and interests with existential processes in a digital society, the disclosure of the conceptual foundations and socio-philosophical aspects of these concepts, contradictions in ensuring the needs and interests of young people in a digital society, as well as ways to ensure the community of individual needs and interests and existential situations in the context of modernization of society.

Kalit so'zlar: mavjudlik, ekzistensiya, jamiyat, axborot, bilim, ehtiyoj, maqsad, manfaat, uyg'unlik, dialektika, yoshlar faoliyati, globallashuv, axborotlashgan jamiyat.

Ключевые слова: существования, общество, информация, знание, потребность, цель, интерес, гармония, диалектика, активность молодежи, глобализация, информационное общество.

Key words: existence, society, information, knowledge, need, goal, interest, harmony, dialectics, youth activity, globalization, information society.

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari raqamlashgan jamiyatni shakllantirib, inson faoliyatida moddiy manfaat va ehtiyojlarni qondirishga intiladigan, milliy qiyofasini yo'qotgan, o'z maqsadi yo'lida har qanday g'oyani qo'llashga tayyor avlodni paydo bo'lishini yuzaga keltirmoqda. Jamiyatda ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligini ta'minlash, kishilarda muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan ekzistensial xolatlarining ma'naviy, siyosiy, guruh, axloqiy kabi shakllarini tadqiq etish dolzarbdir. XXI asrdagi turli ijtimoiy siyosiy muammolarning keskinlashuvi, dunyo mafkuraviy manzarasining o'zgarishlari global taraqqiyotga xos bo'lgan xususiyatlarni ehtiborga olib, ijtimoiy faoliyatda ehtiyoj va manfaatlar, ekzistensial holatlarni falsafiy jihatlarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Dunyoda inson manfaatlarini ta'minlash, ularning hayot darajasi va sifatini oshirishning dinamik va statik holatlarini vujudga keltiruvchi omillarini aniqlash maqsadida amaliy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini taqazo etadi. Virtual, axloqiy va estetik ehtiyojlarning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini, global axborot makoni uchun kurash, yoshlar faoliyatida ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar, hozirgi tez o'zgaruvchan olamda insonning murakkab tafakkuri dunyoni anglash, bilish, o'zaro munosabatlar jarayonida ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligini ta'minlashning muhim ahamiyatini aniqlashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonda

FALSAFA

barqaror fuqarolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-xuquqiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari olib borilayotgan islohotlar va modernizatsiyalashuv jarayonlari bo'yicha "Inson qadri uchun" tamoyili asosida farovon hayot, inson xuquqlari va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar belgilandi[1]. Raqamlashgan jamiyatning mazmun mohiyatini, uning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish, bugungi kunda axborot resurslari davlatlararo to'qnashuv, geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, ushbu jarayonda milliy manfaatlarini himoya qilish, asrab-avaylash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar faoliyatida ehtiyoj va manfaatlarining qondirilishi bugungi axborotlashgan jamiyat bilan bog'liq ravishda namoyon bo'lib, ushbu masalaga qaratilgan ko'plab muammolarning mavjudligi tadqiqot ishini dolzarbligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda mamalakatimizda barcha sohalarini modernizatsiya qilish va yangilash jarayonlari izchil ravishda olib borilmoqda. Innoatsion jarayonlardan ko'zlangan asosiy maqsad jamiyatni rivojlantirish bilan birga, insonlar barqaror hayoti, erkinligi, tinchligi, va to'kis hayotni ta'minlashga qaratiladi. Davlatimiz tomonidan yosh avlodga berilayotgan e'tibor, ularga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarish modernizatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, "bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog'liq"[2]. Shuning uchun ham jamiyatni modernizatsiyalashning eng samarali yo'li raqobatbardosh kadrlar avlodini tarbiyalash, ta'limni rivojlantirish va jamiyatga innoatsiyalarni olib kirishdir.

TADQIQOTNING MAQSADI

Ekzistensializm - inson hayotini imkonli qiladigan va bundan tashqari, har bir haqiqat va har bir harakat qandaydir muhit va inson sub'ektivligini nazarda tutuvchi ta'limotni nazarda tutish, mavjudlik mohiyatidan oldin ekanligiga ishonch birlashtiradigan, inson avval dunyoda mavjud bo'ladi, uchrashadi, paydo bo'ladi va shundan keyingina u aniqlanadi. Ekzistensialist uchun insonni aniqlash mumkin emas, chunki u dastlab hech narsani ifodalamaydi. U faqat keyinroq shaxsga aylanadi va o'zini qanday odam qiladi. Bu ekzistensializmning birinchi tamoyilidir. Inson eng avvalo mavjuddir, bu inson kelajakka yo'naltirilgan va o'zini kelajakka proyeksiya qilayotganini anglaydigan mavjudotdir. Shunday qilib, birinchi navbatda, ekzistensializm har bir kishiga o'z borlig'iga egalik qiladi va unga borliq uchun to'liq javobgarlikni yuklaydi. Subyektivizm, bir tomondan, individual sub'ektning o'zini o'zi tanlashini, ikkinchi tomondan, insonning insoniy sub'ektivlik chegarasidan tashqariga chiqqan olmasligini bildiradi. Bu ekzistensializmning chuqur ma'nosi bo'lgan ikkinchi ma'nodir. Shuning uchun «Ekzistensialist odamning tashvish ekanligini osongina e'lon qiladi. Demak, biror narsaga qaror qilgan va o'zi nafaqat o'z borlig'ini, balki butun insoniyatni bir vaqtning o'zida saylovchi, qonun chiqaruvchi ekanligini anglagan odam to'liq va chuqur mas'uliyat tuyg'usidan qochib qutula olmaydi»[3]. Ekzistensializm odamni qilmishlari bilan ham, shaxsning pessimistik tavsifi sifatida ham belgilaydi: aslida, bundan ortiq optimistik ta'limot yo'q, chunki insonning taqdiri o'ziga bog'liq. Darhaqiqat, bizning boshlang'ich nuqtamiz - bu shaxsning sub'ektivligi. «...Biz insonning universalligi haqida gapirishimiz mumkin, ammo u oldindan berilmagan, lekin doimo yaratilgan». «Inson o'zini o'zi yaratadi. U dastlab yaratilgan emas, axloqni tanlab o'zini yaratadi; vaziyatlarning tazyiqlari esa, u ma'lum bir axloqni tanlamasdan qololmaydi. Biz shaxsni faqat uning pozitsiyani egallash qaroriga bog'liq holda aniqlaymiz». «Ekzistensialist insonni hech qachon maqsad sifatida ko'rmaydi, chunki inson doimo to'liq emas»[4].

TADQIQOTNING VAZIFALARI

Inson mavjudlikka ega, so'ng ma'noga erishadi. Ekzistensialistlarning fikricha, inson avval mavjud bo'ladi, so'ng o'zining mavjudligiga ma'no beradi. Inson o'z hayotining yaratuvchisi va o'zining maqsadini belgilovchisidir. Erkinlik va mas'uliyat. Inson o'z hayotining erkin tanlovchisidir va o'z tanlovlari uchun mas'uldir. Bu erkinlik insonni ham quvonchga, ham qayg'uga olib kelishi mumkin. Absurdlik-ekzistensialistlarning fikricha, hayotning ma'nosi yo'q va inson buni qabul qilishi kerak. Buni anglash insonni xafa qilishi mumkin, lekin shu bilan birga uni hayotdan bahra olishga va o'z ma'nosini yaratishga undaydi. Autentiklik: Inson o'z hayotining erkin tanlovchisi bo'lishi kerak va o'zgalarning ta'siriga berilmasligi kerak. U o'z hayotini o'z yo'li bilan yashashi kerak. Ekzistensializm (lotincha - yashash, mavjudlik), mavjudlik falsafasi — falsafadagi yo'nalish. 20-asr boshida Rossiyada, Birinchi jahon urushidan keyin Germaniyada, Ikkinchi jahon urushi davrida Fransiyada, urushdan keyin boshqa mamlakatlarda paydo bo'lgan. S.Kyerkegor (1813—55) ta'limoti, hayot falsafasi, fenomenologiya ekzistensializmning g'oyaviy manbai hisoblanadi. Diniy

(K.Yaspers, G.Marsel, N.A.Berdyayev, L. Shestov, M.Bubur) va ateistik E. (M. Haydegger, J.P. Sartr, A.Kamyu) bir-biridan farqlanadi. Markaziy tushunchasi — ekzistensiya (inson mavjudligi). Inson mavjudligi asosan g'amxo'rlik, qo'rqish, qat'iylik, vijdon kabilarda namoyon bo'ladi. Dahshat, qo'rquv, o'lim inson yashashining asosini tashkil etadi. Inson o'zini ekzistensiya sifatida anglagandan keyin erkinlikka erishadi, bu erkinlik o'z-o'zini, o'zining mohiyatini tanlashdan iborat bo'lib, insonga olamda yuz berayotgan barcha narsa uchun mas'uliyat yuklaydi. Ekzistensializm borliqning fojialiligini, uning mantiqqa xilofligini, inson ixtiyorida emasligini targ'ib qiladi[5]. Ekzistensializm oqim sifatida tugaganligiga qaramay, hozirgi kunda uning asosiy tamoyillari Yevropa xalqlari mentalitetiga singib ketgan. U g'arb adabiyoti va san'atiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ekzistensialistik axloq odatda apriori mavjud bo'lgan tashqi axloqiy tartib yoki qadriyatlar jadvali mavjud emas degan fikrdan boshlanadi. "Tushunish kerakki, - deb yozadi Bovuar "Noaniqlik axloqi" asarida, "insonga bo'ysungan ishtiyoq hech qanday tashqi asos topa olmaydi. Hech qanday tashqi murojaat, hech qanday ob'ektiv zarurat uni foydali deb atashga imkon bermaydi"[6]. Ammo bu ekzistensialistlar axloqiy nihilizm shaklini ilgari surmoqda, degani emas. Bovuarining e'tirof etishicha, insonning "o'z-o'zidan iroda qilish uchun asosi yo'q. Lekin bu uning o'zini oqlay olmasligini, o'zida mavjud bo'lmagan sabablarni keltira olmasligini anglatmaydi". Aynan inson mavjudligining o'zi "dunyoda qadriyatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Globallashtan, axboriy-mafkuraviy ta'sirlar chuqur, ziddiyatli tus olayotgan bugungi kunda dunyo manzarasini yaxlit tasavvur qilish, unda kechayotgan jarayonlarni tushunish va anglash, shunga ko'ra, insoniyat taraqqiyot mo'ljallarini aniqlash tobora murakkab xarakter kasb etmoqda. Bu esa yuzaga kelayotgan muammolar ko'lamini tezkorlik bilan aniqlash hamda ularning ko'pyoqlama xususiyatlarini qamrab olishga qaratilgan yangicha nazariy echimlar topishni taqozo qilmoqda. XIX asrning oxiri XX asrning boshida G'arbiy Yevropada shakllangan XX asrning dastlabki yarmida esa, zamonaviy arab falsafasiga transformatsiya bo'lib, islom sotsio-madaniy muhitida shakllangan inson haqidagi ta'limotlar bilan sintezlashgan ekzistensializm oqimi muhim nazariy metodologik asos vazifasini bajaradi. Ma'lumki, ekzistensializmning G'arbona va Sharqona talqinlarida borliq va inson munosabatlari, inson ruhiy borlig'ining ma'naviy inqirozlar vaziyatida namoyon bo'luvchi ontognoseologik, psixologik aspektlari, inson hayoti ma'nosi, absurddan chiqish yo'llari, va shaxs kamoloti borasida o'ziga xos original g'oyalar ilgari suriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

«Hayot falsafasi yoki Ekzistensiya» – bu aqlan anglash mushkul bo'lgan allaqandaydir shiddat. Amalda, inson mavjudligining butun mantiqi o'limga tomon yo'naladi. Shu bilan birga, inson o'z umri hamda taqdirining betakrorligi va o'ziga xosligini o'zi belgilaydi, o'zligini tinimsiz anglash harakatlari mazmuni shundan iborat. Nihoyat, umidsizlik va gunohlar hissi inson o'limi oldida qandaydir «manfiy absolyut»ga aylanadi, bu esa o'z navbatida uni «o'z-o'ziga yuzlanishi, erkin qolishi»ga, nimadandir «umid-ilinj»tug'ilishiga olib keladi. Ekzistensializm adabiyotida G'arb tamaddunining inqiroz tangligi, mavjudlikdan ma'no yo'qligini his qilish, inson hayotining engib bo'lmaz fojeasini tasvirlash, uning yolg'izlikka mahkumligi, yozqirash, begonalik hissi, dushman dunyoda tashlandiq ahvolga tushish, «chegara holati»ga tushgan insonning axloqiy tanlovi aks etadi. Ekzistensializmga xos «Dunyo – bu absurd» degan fikr, inson va jamiyat o'rtasidagi aloqa uzilishidan paydo bo'lgan. Ekzistensialist-faylasuflar insonni ijtimoiy, irqiy va diniy kabi har biri alohida, bir-biriga bog'lanmagan dogmalardan holi o'rganishga intiladilar. Ular fikricha, inson ushbu mavhum va ba'zan dushmanona bu dunyoda mutlaq ozod, shu bilan birga yolg'iz hamda ojizdir. Inson atrofidagi muhit uning uchun doimiy xavf o'laroq qabul qilinadi. Faylasuflar har tirik jonotning shaksiz o'limga mahkumligi mavzusiga alohida e'tibor qaratadilar. Ular dunyoqarashidagi o'lim – bu hech narsa: inson yo'qlikdan keladi va vaqti-soati etgach yana yo'qlikka ketadi. Ekzistensialistlar o'z oldilariga dunyoni bir butun tizim sifatida o'rganib, tasavvur yaratish vazifasini qo'ymagan va buni amalda imkonsiz, deb hisoblaganlar. Oqibat – bu falsafiy oqim vakillaridan har birining alohida, o'ziga xos dunyoqarashi hamda qadriyatlar tizimi shakllangan. Ekzistensializm yo'nalishining taniqli vakillari sifatida Rossiyada – Lev Shestov, Germaniyada – Karl Yaspers, Martin Xaydegger, Daniyada – Syoren Kyerkegor, Fransiyada – Jan-Pol Sartr va Alber Kamyu[7], Buyuk Britaniyada – Ayris Myordok va Uilyam Goldinglar hisoblanadi[8]. Ekzistensializm o'z mohiyatiga ko'ra bipolyar: diniy qarashlar S.Kyerkegor tomonidan taqdim etilgan va ateistik qarashlar dahriy, K. Yaspers, J.-P. Sartr, A.Kamyu, L.Shestov kabi vakillar tomonidan taqdim etilgan[9]. Ushbu masalalarga doir jamiyatda mavjud muammolarni o'rganib, ularni hal etishga undaydigan masalalar, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni bildirib o'tish maqsadga muvofiq:

FALSAFA

1. Birinchi navbatda ehtiyoj-manfaatlar ta'minlashishini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy bazani yanada mustahkamlash;

2. Jamiyatda ta'lim-tarbiya tizimi va ekzistensial jarayonlar, inson o'z mavjudligini his etishi, jamichda o'z o'rnini borligini anglashi, mas'uliyatini oshirish;

3. Olamni anglashi, xayotning ma'nosi, umrning mazmunini chuqur tahlili qilishi;

4. O'z mehnati va faoliyatini amaliy va nazariy hayot bilan bog'liq ravishda olib borishlari, hayot va o'z kasbini sevib, ularni qadrlar yashashi, shu bilan birga jamiyatda axborot erkinligi va unda inson omiliga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-ma'naviy omillarga oid yondashuvlarning qiyosiy tahlili, uning ilmiy tadqiqot strategiyasining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy dalillar asosida tahlil etilganligi hamda raqamli jamiyatda yoshlarga ta'sir etuvchi ideologik vositalar, texnologiyalar hamda ulardan foydalanishga oid muammolarni echishga qaratilgan tizimli tahlillar olib borish muhimdir. Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat taraqqiyoti birinchi navbatda fuqarolarning bilimi va ma'rifatiga bevosita bog'liq. Jamiyatni yuksaltirish odamlarni savodini, bilimni oshirish bilan amalga oshiriladi. "Jamiyat a'zolari yuksalmasa, jamiyat ham yuksalmaydi. Jamiyat a'zolari yuksalishi uchun ularning aqlari yuksalishi lozim. Aql esa faqat kitob mutolaasi bilangina yuksaladi"[10]. Raqamlashgan jamiyat va texnika-texnologiyalar yuksak taraqqiy etgan davrda inson ehtiyoj va manfaatlariga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega bo'lib, inson va jamiyat o'zini zamonaviylashtirish, ta'limga va yoshlar siyosatiga alohida e'tibor qaratishi va ushbu masalalar islohotlarning markazida o'rin olishi bilan bevosita bog'liqdir.

Ushbu vaziyatda yoshlar ehtiyoj va manfaatlarining uyg'unligi hamda qarama-qarshiligini o'rganishning muhim vositalardan biri bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilar, talabalarda mustaqil imkoniyatlarining kengayishiga e'tiborni yanada kuchaytirish, mavjud sharoit, zamonaviy ta'lim va tarbiya usullaridan ijodiy ishlarida foydalanish sharoitini yaratish, kengaytirish, muntazam suratda yoshlarning kamoloti uchun zarur axborotlar majmuini egallashlari uchun tadbirlar jarayonini faollashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Yoshlar ehtiyoj va manfaatlarini ta'minlashdagi ziddiyatlarga qarshi kurash mehanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir.

NATIJA VA MUXOKAMA

Inson ehtiyojlariga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida axborot alohida o'rin egallaydi. Globallashtirish davrida axborotning rang-barangligi kengayib bormoqda. Bugungi kunda O'zbekiston hayotidagi jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan yutuqlar birinchi galda siyosiy jarayonlar bilan bog'liq. Xalqaro maydonda shiddat bilan sodir bo'layotgan o'zgarishlar fuqarolarda siyosiy ehtiyojlarning keng ko'lamda namoyon bo'lishini taqozo etmoqda. Siyosiy ehtiyojlarning namoyon bo'lishi uchun fuqarolarda davr talablariga javob beradigan siyosiy bilim zarur. Siyosiy bilim o'z navbatida shaxsning siyosiy madaniyatini oshirishga yo'naltiriladi. Siyosiy madaniyat esa siyosiy faollikka olib keladi. Mazkur jarayon negizida siyosiy masalalar bilan shug'ullanishda shaxsning ehtiyoji hizmat qiladi. Ta'kidlash kerakki, respublikamiz barcha fuqarolari "axborot va siyosat bilan xabardor bo'lishga xarakat qiladi"[11]. Xozirda dunyo shiddat bilan o'zgarib, barcha sohalar kabi axborot olish va uni etkazish, ta'sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish borasida raqobat kuchaymoqda. Bunday murakkab sharoitda hayot yangi-yangi talab va vazifalarni oldimizga qo'yadi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish orqali ularda o'z manfaati va jamiyat manfaatini uyg'unlikda rivojlantirish zarur. Mamlakatimizni ilm-fan, ma'rifat asosda boshqarish jamiyatimizda, xususan yoshlar hayotida osoyishtalik, tinchlikni barqarorlashtirish, insonning baxt-saodati, istiqboli uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni yaratib berishning asosiy omillaridandir. Buning uchun, jamiyat boshqaruvida – ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlash lozim. Bugungi kunda jamiyatda ko'p yoshlar erkinlik tushunchasini noto'g'ri talqin qilishi natijasida ko'plab beqarorlik holatlari yuzaga kelmoqda. Erkinlik falsafiy adabiyotlarda anglab olingan zaruriyat deb ifodalanadi. Shunga asosan jamiyat a'zolari o'ziga berilgan erkinlikni qadrlashi, asrab-avaylashi, uni suiste'mol qilmagan xolda undan to'g'ri foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Agar inson erkinlik muhitida hayot kechirib, davlatga, uning tinchligi, madaniyati, qadriyatlarida zid xatti-xarakatlarni amalga oshirsa, jamiyatda parokandalik yuz berib, inson ehtiyoj va manfaatlarida ham buzilish xolatlari kuzatiladi. "Erkinlik – ehtiyojlardan xalos bo'lishdir"[12]. Shu bois shaxs o'ziga berilgan erkinlikka davlat manfaatlarini nuqtayi nazardan yondashish talab etiladi. Demokratik yangilanishlar jarayoni hech qachon nihoya bilmaydi. Albatta, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jamiyatda yashab kelayotgan fuqarolarning ehtiyoj va manfaatlarini bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun davlatda olib borilayotgan islohotlarning yangidan yangi bosqichlari, jumladan fuqarolik jamiyatini barpo etishda inson omili,

fuqarolarning fikrlarini e'tiborga olish zarurdir. Ushbu jarayonlarni yanada chuqurlashtirishni hayotiy zaruriyatga aylantirib boraveradi. Bu falsafiy dialektik, hayotiy jarayondir.

XULOSA

Jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini bilish, uning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarida ro'y berayotgan ziddiyatlarni bartaraf etish bilan bir qatorda, uni demokratik tamoyillar asosida zamonaviy usulda boshqarish katta o'rin egallaydi. Shaxsning mustaqil qarash va fikri, ularni erkin bildirishi, o'zaro munosabati, qonuniy manfaatlar jamiyat yangilanishlari, inson tafakkuri va ijtimoiy-siyosiy bilimlari darajasining mutanosibligi bilan o'zaro bog'liqdir. Kishilarning manfaatlarini va ehtiyojlarini qondirish maqsadida, ularning o'zaro birlashuvi va kishilar o'rtasidagi iqtisodiy, axloqiy, ma'naviy hamda boshqa ijtimoiy munosabatlari yig'indisidan tashkil topishi muhim. Globallashtirish jarayonining tobora shiddatli tus olishi insoniyat hayotida ziddiyatlarni keskinlashuvi, tafovutlarning o'sishiga olib kelmoqda. Har bir xalqning yaratgan boy ma'naviy merosi va salohiyati uning milliy qiyofasini saqlab qolish, bo'lajak taqdirini belgilash, taraqqiyot strategiyasi va yo'nalishlarini aniqlashtirishda muhim halqa bo'lib xizmat qiladi. Inson ehtiyoj va manfaatlariga jamiyatda oliy qadriyat deb qarash, yoshlar kamolotga intilish, yuksak ideallarga ergashish orqali o'z – o'zini namoyon etish va anglash uchun jamiyat taraqqiyoti darajasini, axloqiy idealini, maqsad va manfaatlarining ustunlik xarakterini yuksaltirish talab etiladi. Inson manfaatlarini himoya qilish muntazam ravishda va tizimli shaklda tashkil etilsa, uning faoliyatida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Insonning manfaatlarini bilan birgalikda esa qarashlari, munosabatlarini his etish ma'suliyati va umuman ijtimoiy – siyosiy harakatlari o'zgarib boradi. Shu nuqtayi nazardan xalq bilan muloqot olib borish, har bir fuqaroni hayoti, mehnati, turmushini yaqindan o'rganib borish, faoliyatini samarali bo'lishi uchun yaxshi sharoitlar natijasida inson faoliyati yuksalib boradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. –Тошкент: Адолат миллий ҳуқуқий ахборот маркази. 2022. –Б.4.
2. Ш.Мирзиёев Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б.24.
3. А.Камю Absurd haqida insho. Moskva. 2004.
4. Ж.П.Сарт. Тошнота: Роман./Пер. с фр. – СПб.: Азбука-классика, 2003. 256 стр. ISBN 5-352-00378-7.
5. Назаров Қ. Н. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-қитъа – Тошкент: "Маънавият", 2019. – 924 б.
6. Beauvoir, S. de, 1947 [1948]. *The ethics of ambiguity*, B. Frechtman (trans.), New York: Philosophical Library.
7. Камю А. Миф о Сизифе. Бунтарь. -М.: Поппури, 2000.
8. Зарубежная литература XX века. Т.2. Вторая половина XX века–начало XXI века: учебник для академического бакалавриата / под ред. В. М. Толмачёва. -Москва: Издательство Юрайт, 2017.
9. Якушев А.В. Философия (конспект лекций) – М.: Приор-издат, 2004.
10. Мубашшир Аҳмад. Олим, одам ва олам. (Ҳикматлар гулдастаси) Тошкент: Qaenus Mediya, 2019. –Б. 151.
11. Абдуллаев Т. Инсон эҳтиёжларининг шаклланиш хусусиятлари. ФарДУ Илмий хабарлари журнали: 2019 йил №1. –Б.65.
12. Mubashshir Ahmad. Olim, odam va olam (Hikmatlar guldastasi) –Toshkent: "Qaenus Media", nashriyoti 2019 –Б. 182.